

## AMALIY GEOGRAFIYA KURSINING GEOGRAFIYA FANINING TARIXI VA HOZIRGI DAVRDAGI RIVOJLANISHI MAVZUSIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH

**Isayev Akbarjon Abdulhamidovich**

**Xabibullayeva Muhabbat No'monjonovna**

**Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li**

*Andijon davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti*

*Geografiya yo'nalishi*

+998902690978, +998934195436, +998901403566

**Annotatsiya:** Interfaol tushunchasi ingliz tilida “interact”, rus tilida “interaktiv” deb ifodalanib, lug’aviy ma’nosi “inter” – o’zaro, ikki taraflama, “act” – harakat qilmoq, ish ko’rmoq degan ma’nolarni bildiradi. Ta’limda geografiya fanini darslarini interfaol usullar yordamida o’qitish bugungi kunning asosiy mazmuniga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada 10-sinf Amaliy geografiya kursining geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi mavzusida interfaol metodlarni qo’llash haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** Amaliy geografiya, chaynvord usuli, FSMU usuli, Domino metodi.

### KIRISH

Ma’lumki, bizga yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan o’zining Oliy Majlisga yo’llagan murojaatnomasida 2023-yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qildi. Bu esa Prezidentimiz tomonidan yoshlarga va qo’lavversa, ularning sifatli ta’lim olishi uchun yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Ta’lim sohasida bo’lgani kabi maktab ta’limida ham hozirgi kunda interfaol metodlardan foydalanib o’qitish zamon talabiga aylanib bormoqda. Bu esa o’qituvchilarni o’z ustida ishlashlari, qo’shimcha adabiyotlardan foydalangan holda malakalarini doimo oshirib borishlari, axborot texnologiyalari sir-asrorlaridan boxabar bo’lishlari kabi qator talablarni qo’ymoqda.

Pedagogik texnologiya – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda o’quvchining oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali tashkil etuvchi va aniq maqsad sari yo’naltirilgan o’quv jarayoniga tizim sifatida yondashib, uni qismlari bo’lgan pedagogning o’qitish vositalari yordamida talabalarga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko’rsatgan ta’sirni nazoratda tutuvchi va ta’lim natijasini baholab beruvchi tehnologiya hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlarni tahlil qilish davomida taniqli metodist olimlar shuni isbot qiladilar, o'quvchi yoki talaba manbani o'zi o'qisa 10 %, ma'lumotni eshitib o'rgansa 20 %, sodir bo'lgan voqe, xodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risida ma'lumotlarni eshitganida 50 %, ma'lumotlarni o'zi tengdoshiga uzatganida 80 % o'zlashtirilgan bilimlarni faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni xotirasida saqlash imkoniyati mavjud ekanligi haqida isbotlaganlar.

Biz tahlil qiladigan 10-sinf Amaliy geografiyasi darsligining mualliflari Sh.M.Sharipov, V.N.Federko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqovlar hisoblanadi.

Amaliy geografiya fani tabiiy va ijtimoiy muhitning o'zgarishini baholash va bashorat qilish bilan shug'ullanadi.

Amaliy geografiya fani geografiyaning rivojlanib kelayotgan yangi tarmoqlaridan biri bolsa ham, uning ildizi tarixiy davrlarga borib tarqaladi. Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar amaliy geografiyaning rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan.

O'qituvchi interfaol metodlar yordamida dars o'tganida o'quvchilar an'anaviy dars mashg'ulotlarini o'tgan o'qituvchiga nisbatan o'quvchilar faolroq namoyon bo'ladi. Ushbu metodlardan foydalanmagan o'qituvchi sinfda faqat ma'ruzachi sifatida o'zi namoyon bo'ladi.

## NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 10-sinf Amaliy geografiya kursining geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi mavzusida interfaol metodlarni qo'llash orqali biz o'quvchilarni dars vaqtida faollikka chorlagan bo'lamiz.

I."Chaynvord" usuli.

Chaynvord "Chain" – zanjir, qator, tizim; "Word" - so'z ma'nolarini bildirib, "zanjirli jumboq, muammo, topishmoq, tilsim o'yini" degan ma'nolarni bildiradi. O'yinning qoidasi shundayki, biror shakl zanjirli kataklardan iborat bo'lib, uning oxirgi harfdan ikkinchi topshiriqning bosh harfi boshlanadi. Zanjirli kataklar ko'proq biror shakl ko'rinishida beriladi.

No	Savollar	Javoblar
1	Grelandiya orolini kim o'rgangan?	Erik Rauda
2	A.Nikitin Hindistonga sayohat qilib qanday asar yozib qoldirgan?	Uch dengiz osha
3	Aristotel qanday nazariyani ilgari surgan?	Geotsentrik
4	Kant-Laplansning qanday nazariyasi bor?	Kosmogonik
5	Kolumb kashf etgan qit'a nomi nima?	Amerika

6	Afrikani aylanib o'tib, Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo'llini ochgan sayyoh kim?	Vasko da Gama
7	Atlantika okeanidagi dengiz nomi nima?	Norvegiya

II. FSMU usuli.

Mazkur usulda o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrini bayon etadi. Uni bayoniga sabab ko'rsatadi. Unga misollar keltiriladi. So'ngida barcha fikrlarini umumlashtiradilar.

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni aniqlovchi misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring

O'qituvchi o'quvchilar bilan geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi haqida baxs mavzu belgilab oladi.

Yakka tartibdagi ish tugagach, o'quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruhlarga FSMU usulining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

Kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirilgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi;

O'qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini aytadi.

Mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgani fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi. Ushbu metodni 10-sinf Amaliy geografiya kursining geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi mavzusida quyidagi holatda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi qaysi davrlarni o'z ichiga olgan?

F – XV asrning ikkinchi yarmiga kelib XVI asrning oxirlariga qadar bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi.

S – Sabab, Yevropada tabiiy resurslar va xomashyoga boy deb hisoblangan Hindiston va Xitoyga yangi yo'llarni topish ishlari boshlandi.

M – Demak, Buyuk geografik kashfiyotlar uch yo'nalishda olib borildi.

1) Janubiy – Afrika bo'ylab, 2) G'arbiy – Atlantika okeani orqali, 3) Shimoliy – Yevrosiyoning qutbiy o'lkalari va shimoliy qirg'oqlari bo'ylab.

U – Asosan XV asrning ikkinchi yarmiga kelib XVI asrning oxirlariga qadar bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Sabab, Yevropada tabiiy resurslar va xomashyoga boy deb hisoblangan Hindiston va Xitoyga yangi yo'llarni topish ishlari boshlandi. Demak, Buyuk geografik kashfiyotlar uch yo'nalishda olib borildi. 1) Janubiy – Afrika bo'ylab, 2) G'arbiy – Atlantika

okeani orqali, 3) Shimoliy – Yevrosiyoning qutbiy o'lkalari va shimoliy qirg'oqlari bo'ylab. Ushbu bosqich 1492-yil Ispaniyalik Xristofor Kolumbning Amerikaga 1-sayohatidan boshlanadi.

### III. Domino usuli.

Mazkur usulda ushbu 10-sinf Amaliy geografiya kursining geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi mavzusiga oid biror yod olish qiyin bo'lgan ma'lumotni o'rghanishda qulay hisoblanadi. Yangi va o'tgan mavzuni mustahkamlayotganda ma'lum bir mintaqaga kiruvchi hududlarni tartibsiz joylashgan bo'ladi. Uni esa o'quvchi tartib bilan joylashtirib chiqadi. Agar o'tgan yoki, yangi mavzuni mustahkamlash paytida foydalaniladigan bo'lsa o'quvchilarni yakka tartibda, jamoaviy tarzida olib borishda quyidagicha qilib tarqatma tayyorlanadi:

X	SAVOL
---	-------

JAVOB	X
-------	---

### Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinniki, bugungi zamonaviy taraqqiyotga erishayotgan ta'llim tizimida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy geografiya kursining geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi mavzusida yuqoridagi metodlardan foydalanish orqali biz o'quvchilarda Vatanparvarlik, ustoz-shogird kabi an'analarni rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Sharipov, V.N.Federko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqov 10-sinf Amaliy geografiyasi. 2017-yil
2. Isayev A. A., Mahmudov M. M. MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI KURSINI O'QITISHDA O 'QUVCHILARDА SHAKLLANADIGAN GEOGRAFIK TUSHUNCHALAR.
3. Isayev A. A., Inomjonova D. The Influence of Transport Factor on the Development of Urban Agriculture in the Fergana Valley //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 249-254.
4. M.S.Saidova, G.R.Bozorova  
<https://cyberleninka.ru/article/n/umumta-lim-maktablarida-geografiya-fanidan-darslarni-tashkil-etishdagi-ba-zi-muammolar-va-ta-lim-jarayonida-axborot/viewer - 269-273> b.

5.Vahobov H, Mirzamahmudov O.T – Geografiya o'qitish metodikasi (uslubiy qo'llanma) – 6 b.

6. Vahobov H, Mirzamahmudov O.T – Geografiya o'qitish metodikasi (uslubiy qo'llanma) – 24 b.

7. M.N.Xabibullayeva, A.R.Arabboyev, Sh.M.Abdug'ofurov  
<http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/140/34> - 176-182 b.

8.O'zbekiston ilk bor 2022-yilda xalqaro tадqiqotlarda ishtirok etadi.  
<https://yuz.uz> sayti.

9.Isayev A.A., Abdurahmonova N. Farg'ona vodiysi shahar aglomeratsiyalari rivojlanishiga transport omilining ta'siri // Journal of Geography and Natural Resources.

<http://sjifactor.com/passport.php?id=22047>

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr> <https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-02-02-02> 10.А.А. Исаев Ўзбекистонда автомобиль ва жамоат транспортида йўловчи ташиш динамикасидаги ўзгаришлар // Journal of Geography and Natural Resources.

<http://sjifactor.com/passport.php?id=22047>

<https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-02-03-03>